

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI**

XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo‘jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2025-5/5

**Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

Xiva-2025

Bosh muharrir:*Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.***Bosh muharrir o'rinbosari:***Hasanov Shodlik Bekpo'latovich, k.f.n., k.i.x.***Tahrir hayati:**

<i>Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.</i>	<i>Mirzayeva Gulnara Saidarifovna, b.f.d.</i>
<i>Abdullayeva Muborak Maxmusovna, b.f.d., prof.</i>	<i>Najmeddinov Axmad Raxmatovich PhD, dotsent</i>
<i>Abduhalimov Bahrom Abduraximovich, t.f.d., prof.</i>	<i>Pazilov Abdurayev, b.f.d., prof.</i>
<i>Agzamova Gulchexra Azizovna, t.f.d., prof.</i>	<i>Razzaqova Surayyo Razzoqovna, k.f.f.d., dos.</i>
<i>Aimbetov Nagmet Kalliyevich, i.f.d., akad.</i>	<i>Ramatov Bakmat Zaripovich, q/x.f.n., dos.</i>
<i>Ametov Yakub Idrisovich, b.f.d., prof.</i>	<i>Raximov Raxim Atajanovich, t.f.d., prof.</i>
<i>Babadjanov Xushnut, f.f.n., prof.</i>	<i>Raximov Matnazar Shomurotovich, b.f.d., prof.</i>
<i>Bahodirova Feruza Bahodir qizi, PhD, dots.</i>	<i>Raximova Go'zal Yuldashovna, f.f.f.d., dos.</i>
<i>Bobojonova Sayyora Xushnudovna, b.f.n., dos.</i>	<i>Ro'zmetov Baxtiyar, i.f.d., prof.</i>
<i>Bekchanov Davron Jumanazarovich, k.f.d.</i>	<i>Ro'zmetov Dilshod Ro'zimboyevich, g.f.n., k.i.x.</i>
<i>Buriyev Xasan Chutbayevich, b.f.d., prof.</i>	<i>Ruzmetov Davron Ibrogimovich, PhD</i>
<i>Gandjayeva Lola Atanazarovna, b.f.d., k.i.x.</i>	<i>Sadullayev Azimboy, f-m.f.d., akad.</i>
<i>Davletov Sanjar Rajabovich, tar.f.d.</i>	<i>Salayev San'atbek Komilovich, i.f.d., prof.</i>
<i>Durdiyeva Gavhar Salayevna, arx.f.d.</i>	<i>Saparbayeva Gulandam Masharipovna, f.f.f.d.</i>
<i>Ibragimov Baxtiyor To'laganovich, k.f.d., akad.</i>	<i>Saparov Kalandar Abdullayevich, b.f.d., prof.</i>
<i>Izzatullayev Zuvayd, b.f.d., prof.</i>	<i>Safarov Alisher Karimjanovich, b.f.d., dos.</i>
<i>Ismailov Is'haqjon Otabayevich, f.f.n., dos.</i>	<i>Sirojov Oybek Ochilovich, s.f.d., prof.</i>
<i>Jumaniyozov Otoboy, f.f.d., prof.</i>	<i>Sobitov O'lmasboy Tojxmedovich, b.f.f.d., k.i.x.</i>
<i>Jumaniyozov Zoxid Otabayevich, f.f.n., dos.</i>	<i>Sotipov Goyipnazar, q/x.f.d., prof.</i>
<i>Jumanov Murat Arepbayevich, b.f.d., prof.</i>	<i>Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, b.f.d., akad.</i>
<i>Kadirova Shaxnoza Abduxalilovna, k.f.d., prof.</i>	<i>Xolliyev Askar Ergashevich, b.f.d., prof.</i>
<i>Qalandarov Nazimxon Nazirovich, b.f.f.d., k.i.x.</i>	<i>Xolmatov Baxtiyor Rustamovich, b.f.d.</i>
<i>Karabayev Ikramjan Turayevich, q/x.f.d., prof.</i>	<i>Cho'ponov Otanazar Otojonovich, f.f.d., dos.</i>
<i>Karimov Ulug'bek Temirbayevich, DSc</i>	<i>Shakarboyev Erkin Berdikulovich, b.f.d., prof.</i>
<i>Kurbanbayev Ilhom Jumanazarovich, b.f.d., prof.</i>	<i>Ermatova Jamila Ismailovna, f.f.n., dos.</i>
<i>Kurbanova Saida Bekchanovna, f.f.n., dos.</i>	<i>Eshchanov Ruzumboy Abdullayevich, b.f.d., prof.</i>
<i>Qutliyev Uchqun Otoboyevich, f-m.f.d., prof.</i>	<i>O'razboyev G'ayrat O'razaliyevich, f-m.f.d.</i>
<i>Lamers Jon, q/x.f.d., prof.</i>	<i>O'rozboyev Abdulla Durdiyevich, f.f.d.</i>
<i>Maykl S. Enjel, b.f.d., prof.</i>	<i>Hajiyeva Maqsuda Sultonovna, fal.f.d.</i>
<i>Maxmudov Raufjon Baxodirovich, f.f.d., k.i.x.</i>	<i>Hasanov Shodlik Bekpo'latovich, k.f.n., k.i.x.</i>
<i>Mirzayev Sirojiddin Zayniyevich, f-m.f.d., prof.</i>	<i>Xudayberganova Durdona Sidiqovna, f.f.d.</i>
<i>Matniyozova Hilola Xudoyberganovna, b.f.d., prof.</i>	<i>Yuldashev Xamza Kamalovich, PhD</i>
<i>Masharipova Feruza Jumanazarovna, PhD</i>	<i>Zaripova Ranojon Zaripovna, PhD, dotsent</i>

Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№5/5 (126), Xorazm Ma'mun akademiyasi, 2025 y. – 302 b. – Bosma nashrning elektron varianti - <https://www.mamun.uz/bulletin>

ISSN 2091-573 X

Muassis: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mintaqaviy bo'limi – Xorazm Ma'mun akademiyasi

© Xorazm Ma'mun akademiyasi noshirlik bo'limi, 2025

Sirojiddinova Sh.S. Badiiy matn kontekstida mifologiya poetikasining roli va ahamiyati	102
Sultonova K.F. Botanik terminlarning struktur xususiyatlari	105
Suvanova M.X. Oilaviy-maishiy marosimlarga oid etnografizmlar tasnifi	109
Teshabayeva D.M., O'sarova M.A. Widespread use of english terms in uzbek brand names	111
Toirova U.S. Isajon Sultonning bo'ri hikoyasidagi bo'ri zoosemizmining xususiyatlar	114
To'rayeva S.Q. Xurshid Davron she'riyatida tarixiy siymolar obrazi	116
Turdiyeva G.A. His-hayajonni ifodalovchi til birliklarining o'rganilishi	118
Turdiyeva N.Yo. Transformation of Concepts in the Translation Process: A Study of William Shakespeare's Works	121
Tursunov M.M., Mirzayeva M.Z. O'zbek milliy kinofilmlarida qahramonlar obrazini yaratishda lisoniy hamda nolisoniy omillar tahlili	124
Tursunov M.M., Sharipova D.B. Characteristic features of Ted Hughes' poetry	127
Tursunov M.M., Cho'lliyeva M.X. Ingliz mediadiskursida "milliylik"ga aloqador obrazlar tahlili	130
Umurzoqova M.E. O'zbek lingvomadaniyatiga xos lisoniy shaxs tiplari xususida	133
Usmanova Z.I. Terminlarni tizimlashtirish — zamonaviy tilshunoslikning dolzarb vazifasi sifatida	136
Usmonova D.S., Jurayeva Sh. Modern trends of conceptual metaphor study in cognitive linguistics	142
Usmonova Sh., Bozorboyeva X. Vaqt tushunchasining kognitiv va madaniy talqinini solishtirish	144
Usmonova O.S. Taom nomlari bilan bog'liq frazeologizmlarning lingvokulturologik xususiyatlari	146
Vafoyeva M.R. Lexico-stylistic features of periphrasis in english journalistic discourse	149
Valiyeva N.D. Realism in english literature: a comprehensive examination	152
Xalilova Z.K. Hindiy tilidagi hisob va miqdor ifodalovchi so'zlar va ularning o'zbek tilidagi analoglari	154
Xamroyeva D.J. Abdulla Sher she'rlaridagi ba'zi obrazlarga tavsif	157
Xolmatova O.O., Xamdanova O.M. Hadis matnlarida qo'llanuvchi sifat so'z turkumi va ularning ma'no guruhlari	159
Xomidjonova M.O., Adamboyeva N. Ingliz va o'zbek tillarida varvarizmlarning o'ziga xos xususiyatlari va nutqda qo'llanish ahamiyati	161
Xudayberganova D.V. "Shum bola" qissasida keltirilgan ba'zi xalq o'yinlarining tarbiyaviy ahamiyati	163
Xusanova G.Sh. Bolalar o'yin nomlarini shakllantirishda til va madaniyatning o'zaro ta'siri	166
Yaxshiboyeva G.O. Akademik mobillik sharoitida ingliz tilini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari	168
Yo'ldasheva X.Q., Narzullayeva Ch.A. Sotsiolekt turlarining deytik xususiyati	172
Yo'ldasheva D.X. Pleonazm hodisasini o'rganishning kognitiv asoslari	176
Yuldasheva F.F. Lingvomadaniy jamiyatdagi estetik qadriyatlar o'zbek va rus tillari maqollari ko'zgusida	179
Yuldasheva M.A. Badiiy matnda alluziya: matnlararo ma'no sarguzashti	182
Yuldosheva S.T., Turayeva U.Sh. Scientific and theoretical basis of terms related economics	185
Yunusova G.D., Xujaeva U.T. Koreys tilida murojaat shakllarining tasnifi	188
Yusupova M.A. The role of women in society in uzbek and english literature: a comparative analysis of "O'tkan kunlar" by Abdulla Qodiriy and "Pride and prejudice" by Jane Austen	191
Yusupova G. Feministik tilshunoslik gender va til tadqiqotlarining asosi sifatida	194
Yusupova S.A., Isaqjonova D.D. Tilshunoslikda gradatsiyaning turlari va uning ahamiyati	197
Zaripov F.H. The role of linguistics in advertising and marketing: how language is used to influence and persuade consumers	199

O'ZBEK MILLIY KINOFILMLARIDA QAHRAMONLAR OBRAZINI YARATISHDA LISONIY HAMDA NOLISONIY OMILLAR TAHLILI

M.M.Tursunov, PhD, dots., Buxoro davlat universiteti, Buxoro

M.Z.Mirzayeva, magistrant, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Ushbu maqola o'zbek milliy kinofilmlaridagi turli obrazlarni yaratishda qo'llaniladigan lisoniy hamda nolisoniy omillarni tahlil qiladi. Shuningdek, mazkur ishda kinodiskurs, kinonutq, kinofilmlarni suratga olishda tilshunoslik materiallarining o'rni, tahlili masalalariga ham to'xtalib o'tiladi. Milliy kinofilmlarda yaratilayotgan obrazlarning jamiyat madaniyati, tarixi, tili, mentalitetiga aloqadorlik, bog'liqlikning lingvistik tamoyillari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: lingvopragmatika, semiotika, noverbal komponent, kinomatn, belgi-ramzlar, expressivlik xususiyati, tizimli-funksional yondashuv.

Аннотация. В данной статье анализируются языковые и нелингвистические факторы, используемые при создании различных образов в узбекских национальных фильмах. Также в данной работе обсуждаются вопросы кинодискурса, киноречи, роли и анализа языкового материала при съемках фильмов. Обсуждаются лингвистические принципы связи и связи образов, созданных в национальных фильмах, с культурой, историей, языком и менталитетом общества.

Ключевые слова: лингвопрагматика, семиотика, невербальный компонент, кинотекст, знаки и символы, особенности выразительности, системно-функциональный подход.

Abstract. This article analyzes the linguistic and non-linguistic factors used in the creation of various images in Uzbek national films. Also, in this work, the issues of film discourse, film speech, the role and analysis of linguistic materials in the filming of films are also discussed. Linguistic principles of connection and relationship of the images created in national films with the culture, history, language, and mentality of the society are discussed.

Key words: linguo-pragmatics, semiotics, non-verbal component, film text, signs and symbols, feature of expressiveness, systemic-functional approach.

Diskurs lotincha discursus – muhokama so'zidan olingan bo'lib, hissiy, bevosita, intuitiv, ya'ni muhokamatalab bilimdan farqli o'laroq, muhokama orqali vosita bilan hosil qilinadigan mantiqiy dalil – isbotli bilim demakdir. Diskurs tushunchasi lingvistik atama sifatida o'tgan asrning o'rtalarida tilshunoslikka kirib keldi. Tilshunoslikda u dastlab gap yoki nutqda bog'langan va kelishilgan oqibat sifatida tushunilgan bo'lsa, zamonaviy lingvistikada murakkab kommunikativ hodisa sifatida izohlanmoqda. Zamonaviy lingvopragmatikaning muhim muammo-laridan biri «diskurs» tushunchasining nutq, matn, fikr, dialog kabi tushunchalar bilan munosabatini aniqlashdir. XX asrning oxirgi choragida tilshunoslikda matn va diskurs tushunchalarini vaziyat kategoriyasiga suyanan holda farqlashga urinishlar bo'ldi va bu borada Yevropa tilshunoslarining fikrlari deyarli bir xil. Shunday, diskurs «matn plyus vaziyat» tarzida va ayni damda matn «diskurs minus vaziyat» shaklida izohlandi. Bunday talqin unchalik ommalashmadi va keyingi ko'plab ishlarda «diskurs» va «matn» atamasi farqlanmay qo'llanmoqda.

Bugungi kunda kinodiskurs tushunchasi zamonaviy tilshunoslikda eng ko'p tadqiq etilayotgan sohalaridan biriga aylandi. Kino o'zining paydo bo'lishidan boshlab semiotikani o'rganish obyekti bo'lib kelgan. J.Linzbaix o'z asarlarida kinoga ma'no ifodalashning og'zaki va noverbal vositalari, “ko'p tilli” san'at birikmasi sifatida e'tibor bergan. Yu.M.Lotman kinoni semiotika nuqtai nazaridan o'rgangan eng ko'zga ko'ringan olim edi. Yu.M.Lotman filmni yuqorida aytib o'tganimizdek, matn sifatida ko'rib, uni semiotika nuqtai nazaridan, ma'no hosil qilish nuqtai nazaridan tahlil qilgan. Shu bilan birga, filmning noverbal komponentiga (operatorlik, montaj, rang bilan ishlash, ovoz) alohida e'tibor berildi. Yu.M.Lotman kino matnining kadr va kino iborasi kabi komponentlarini ajratib ko'rsatadi. Yu.G.Tsivyan kino matnini “matnning uzluksiz bo'limlarining diskret ketma-ketligi <...> yadroviy kadrlar zanjiri” deb ta'riflaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, filmning og'zaki komponenti

geterogen semiotik tizim sifatida semiotik yondashuv doirasida maxsus o'rganilmagan, chunki filmdagi so'z muhim bo'lsa-da, odatda til diapazoniga tegishli hisoblanadi. Ba'zi tadqiqotchilarning fikrlariga ko'ra, kino matnlarida "og'zaki bo'lmagan komponent ikkilamchi, bo'ysunuvchi ma'lumot manbasidan tezda matnning teng tarkibiy qismiga aylanadi, og'zaki ketma-ketlikdan kam emas".

G.G. Slyshkin va M. A. Yefremovalarning fikricha, filmning lingvistik tizimiga belgi-ramzlar, lingvistik bo'lmaganlarga - belgi-ko'rsatkichlar va belgi-piktogrammalar xizmat qiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, semiotika tomonidan an'anaviy ravishda amalda ajratib ko'rsatilgan belgilar turlari ko'p hollarda aralash shaklda harakat qiladi, u yoki bu funktsiyada ustun xususiyatga ega, ularni filmlarda ham kuzatish mumkin.

Biz filmga semiotikada tizimli-funksional yondashuv vakillari tomonidan rioya qilingan alohida nuqtai nazar yuzasidan yondashamiz. Ushbu sohadagi tadqiqotchilar filmni semiotik tizim deb hisoblash mumkinligini ta'kidlashadi, chunki u semiotik tizimlar javob berishi kerak bo'lgan mezonlarga javob beradi. Bu tizim ochiq, u o'zgarishga qodir, chunki u tarixiy va ijtimoiy jihatdan shartlangan. S. De Grovning fikricha, tizim va uni qo'llashning alohida holatlarini farqlash kerak: tizimni individlar turli yo'llar bilan ishlatadigan, ma'noni o'ziga xos tarzda qayta tiklaydigan ma'no manbai sifatida ko'rish kerak. Shunday qilib, tomoshabinlar uchun ma'noni qayta tiklashning alohida holatlari tizim tomonidan oldindan belgilanmagan, ya'ni filmni idrok etishda ijodiy jarayon sodir bo'ladi, tomoshabin ma'noni qurish uchun ma'lum bir erkinlikka ega. Filmga qo'llanilganda, bu ma'noni rejissyor ham, tomoshabin ham to'g'ridan-to'g'ri nazorat qilmasligini anglatadi: rejissyor qandaydir ma'no yaratish uchun tizimdan o'ziga xos tarzda foydalanadi, tomoshabin esa xuddi shu tizimdan o'zi tushunadigan film yaratish uchun ham uni o'ziga xos tarzda talqin qiladi. Semiotika nuqtai nazaridan filmni matn deb hisoblash mumkin. Shunday qilib, E. B. Ivanova "Badiiy filmlardagi matnlararo aloqalar" dissertatsiyasida "Kino bu matn, ya'ni. bog'langan semiotik makon" degan fikrni olg'a suradi. Semiotika doirasida "kino matni" tushunchasi qabul qilish uchun o'rta tashlangan.

O'zbek kinosining shakllanish va rivojlanish bosqichida ko'pmillatli sobiq sovet davlatiga xos san'atning an'anaviy yo'nalishlari o'z aksini topgan edi. O'sha hukmdor ideologiyaga muvofiq tasvirlangan voqea va hodisalarda sinfiy kurash yoki ma'naviy qoloq insonlarni qayta tarbiyalash an'anasi muhim bo'lib, salbiy va ijobiy qahramon orasidagi konflikt badiiy asar uchun bosh mezon hisoblanardi. G'arb kino san'ati taraqqiyot bosqichlarida esa falsafa muhim o'rin tutgan edi. Shuning uchun ham, yagona ko'p millatli davlat tarkibida bo'lgan o'zbek kinosida g'arb kinofilmlarida bo'lganidek, muallifning "zohidona" falsafiy dunyoqarashi aks etgan asarlar umuman uchramaydi. Albatta, ramziy ma'nolarga ega kadrlar yoki majoziy tasvirlarga urg'u berilgan o'zbek filmlarining sarasi hanuzgacha estetik qiymatini yo'qotmaganligini, milliy ruhiyat yoki milliy an'ana va qadriyatlarning sof ekran muqobili topilgan filmlargina o'zbek kinosining rivojlanishida muhim poydevor xizmatini o'taganini unutish mumkin emas.

1998-2007-yillar oralig'ida yaratilgan "Voiz", "Yolg'iz yodgorim", "Vatan", "O'tov" kabi filmlarda rejissorlar sobiq mustamlakachilik siyosatini qoralashni emas, erkin ijodkor sifatida bo'lib o'tgan hodisaning ildizlarini insonning ruhiyati bilan bog'lashga harakat qildilar.

Jamiyatning tabiiy tadrijiy rivojlanishini bir zumda buzib yuborish qudratiga ega inqilob va sobiq sovet davlati siyosatining ozod inson ruhiyatiga keskin ta'sir etgan salbiy oqibatlarini qayta idrok etgan kinorejissorlar – Y.Roziqov, S.Nazarmuhamedov, Z.Musoqov, Y.To'ychiyev va A.Shahobiddinovlarning o'tgan asr siyosati qurboni bo'lgan inson qismati yoritilgan asarlarida milliy tafakkurning ijtimoiy-siyosiy voqealarga munosabati aniq namoyon bo'ldi.

Oila qurish va bir yo'la marhum akaning ikki rafiqasini tanmahrmlikka olish qismati O'zbekistonda inqilobning amalga oshayotgan kunlariga to'g'ri kelib qolgan Iskandarning talato'plarga boy hayoti ("Voiz"), umrining navqiron fasllarini "siyosat qog'oziga o'ralgan" husumat tufayli surgunda o'tkazishga majbur bo'lgan inson taqdiri ("Yolg'iz yodgorim", "Vatan") va sho'rolar hokimiyatiga nisbatan ishonchsizlik hissi bilan yashab kelgan odamovi Ubaydulloh ruhiyatidagi ("O'tov") evrilishlar aks etgan filmlarda mualliflarning inqilobning inson taqdiriga ta'siriga faylasufona munosabati ko'rinadi.

“Vatan”da mamlakatning mustaqillik yillarida xoriyda yashayotgan vatandoshlarimizning O‘zbekistonga kelish imkoniyatidan bahramand bo‘lganlari namunasini ko‘rishimiz mumkin. Lekin kimnidir sog‘inch, kimnidir otalar vasiyatini ado etish burchi ona yurtga chaqirgan bo‘lsa, “Vatan” filmining qahramonini vatandoshiga nisbatan qahr yetaklab keladi. Musofirchilikda umr kechirish, Sibirdagi mashaqqatli hayot, sevgilisining ayanchli o‘limi va butun orzu umidlari sarobga aylanishiga sababchi bo‘lgan insonni topish, qachonlardan beri tinchlik bermayotgan o‘ch olish hissini qondirish maqsadi bilan ona yurtga kelgan Qurbon obrazi “Vatan” filmining g‘oyasini to‘laqonli ochilishiga xizmat qilishi ko‘zda tutilgan. Sobir Nazarmuhamedov ham, Zulfiqor Musoqov ham bosh qahramonning fojiasida jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlardan ko‘ra yaxshilik va yovuzlik o‘rtasidagi azaliy kurash muhim o‘rin tutganligini ibotlay oldilar. Albatta, milliy dunyoqarashning ekran muqobilini topishga harakat qilgan ikki rejissorning filmi qiyosiy tahlil etilsa, ssenariy dramaturgiyasi va ijrochilik mahorati jihatidan “Vatan” filmining kemtik joylari bamisoli “yirik plan”da namoyon bo‘ladi...

Y.Roziqovning “Voiz” filmida inqilob milliy, diniy qadriyatlarga, azaliy an‘analarga tahdid soluvchi va insonning tinchligini besabab buzuvchi favqulodda kuch ekanligi retro yo‘li bilan yoritilgan bo‘lsa, S.Nazarmuhamedovning “Yolg‘iz yodgorim”ida jamiyatdagi o‘zgarishlar tabiiy ekanligi va inson bunday favqulodda o‘zgarishlar oldida faqatgina o‘zgarimas va aniq e‘tiqod tufayli omon qolishi mumkinligi aytiladi. Shu bilan birga, oktyabr inqilobi jamiyatning rivojida muhim o‘rin tutganligini unutish mumkin emasligi “Voiz” filmida aniq va haqqoniy ta‘riflandi. Ya‘ni, xotin-qizlarni paranjidan ozod etish, jamiyatning faol a‘zosiga aylantirish, sinfiylik, tabaqalanish muammolari nisbatan hal etilganligi va bu jarayonda inqilobni “haqiqatning qaror topishi” ma‘nosida qabul qilgan kishilarning hayoti fojiali yakun topganligi “Voiz”da ham, “Vatan”da ham, qisman “Yolg‘iz yodgorim”da ham o‘z isbotini topdi.

O‘zbekiston kinematografida ham bir qancha onalar obrazi aks etgan filmlar yaratilgan. Ammo ko‘pchilik tomoshabinlar qalbidan 1962-yilda yaratilgan Shuhrat Abbosovning “Sen yetim emassan” (ss. mual. Rahmat Fayziy) filmidagi Fotima ona obrazi chuqur joy olgan, desak yanglishmagan bo‘lamiz. Urushning ayanchli oqibatlarini sababli turli millatli o‘g‘il-qizlarni o‘z bolasidek qabul qilib, mehr berib, tarbiyalagan, oq yuvib, oq taragan ona obrazini unutib bo‘ladimi?! Mazkur film real hayot voqealariga asosan yaratilgan. Filmida toshkentlik temirchi Shoahmad Shomahmudov (O.Jalilov ijrosida) va uning umr yo‘ldoshi Baxri Akramovalarning (L.Sarimsoqova ijrosida) Ikkinchi jahon urushi yillarida turli hududlardan O‘zbekistonga olib kelingan har xil millatga mansub 14 bolani boqib olgan oila haqida hikoya qilinadi. Ushbu filmida Lutfixonim Sarimsoqovaga xos professional ijro o‘zining mukammal yechimini topgan. Aytish kerakki, bu rol aynan L.Sarimsoqova uchun mo‘ljallab yozilgan, chunki aya o‘zbek millati hayoti, urf-odatlarini, o‘ziga xos xususiyatlarini juda yaxshi bilardi. Film bundan ancha yillar ilgari yaratilgan bo‘lishiga qaramay, Lutfixonim Sarimsoqova yaratgan ushbu obraz hamon o‘zbek xalqining betakror, matonatli, bag‘rikeng, bolajon onasi sifatida tan olinadi. Sababi o‘zbek millatiga xos bolajonlik, mehmondo‘stlik, sadoqat, mehr-muruvvat kabi yuksak insoniylik hislatlar, betakror fazilatlar ana shu birgina Fotima ona obraziga to‘laqonli ravishda singdirilgan. Aktrisa Lutfixonim Sarimsoqova ijodi haqida San‘atshunoslik instituti olimasi Valentina Kosheleva “O‘zbek sahnasi va kinosining onaxoni” (1978) mavzusida ilmiy izlanish olib borgan. U aktrisaning “Sen yetim emassan” filmidagi obrazi haqida shunday yozadi: “Sarimsoqovaning Fotimasi o‘zining butun qalb qo‘rini, mehrini turli millat bolalarini tarbiyalashga baxsh etgan umumlashgan, tipiklashtirilgan o‘zbek ayoli – ona obrazidir. Bu o‘zbek kinematografiyasida yaratilgan eng yaxshi ayol obrazidir. Fotima o‘zida xalqimizning donolik, ko‘ngilchanlik, kishilarga chin yurakdan iliq munosabatda bo‘lish, soxtakorlik va yolg‘onga nisbatan murosasizlik singari go‘zal fazilatlarini gavdalantirgan onaning ramziy ifodasidir”. Shu ma‘noda aytish mumkinki, L.Sarimsoqova sahna va ekranda bir-birini takrorlamaydigan ko‘plab o‘zbek ayoli xarakteri, xususan, onalar obrazi galereyasini yaratgan.

O‘zbek milliy kinofilmlarda qahramonlar obrazini yaratishda qo‘llaniladigan lisoniy omillarga til sathidagi turli leksik birliklar, murakkab shaklga ega paremiologik birliklar, jumladan maqol, aforizm, iboralar, shuningdek, kuchli ekpressivlik xususiyatiga ega stilistik vositalar, misol uchun metafora, metonimiya, sinekdoxa, kinoya va hokazolarni qayd eta olamiz.

Milliy kinofilmlarda qahramonlar obrazini yaratishda ishlatiladigan nolisoniy omillarning ham alohida o'rni bor, zero bosh roldagi obrazlarning qahramonona harakatlari, hech kim bajara olmaydigan hatti-harakatlarni qila olishi tomoshabinlarni lol qoldiradi. Qahramonlarning turli imo-ishoralari, belgilari, ularning kiyinishlari va hokazo ekstralingvistik xususiyatlar filmdagi umumiy qahramon obrazini yaratishga yordam beradi, ba'zi hollarda nolisoniy vositalar lisoniy birliklardan kuchliroq ta'sir kuchiga ega bo'la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Khomsky D., 2002., Discourse. Philadelphia: Open University Press. ISBN 978-0-335-20070-2, 103-104p.
2. Ostman J. Discourse analysis / J.Ostman, T.Virtanen // Handbook of Pragmatics. – Amsterdam, Philadelphia, 1995. – P. 239 – 253.
3. Горшкова В.Е. Перевод в кино. Иркутск: Иркут. гос. лингвист. ун-т, 2006. 178 с.
4. Колодина Е.А. Статус кинодиалога в ряду соположенных понятий: кинодиалог, кинотекст, кинодискурс // Вестник Нижегородского университета им. Лобачевского. 2013. Вып. 2. С. 328- 329.
5. www.ziyounet.uz

UO'K 8(082)

INGLIZ MEDIADISKURSIDA "MILLIYLIK"GA ALOQADOR OBRAZLAR TAHLILI

M.M.Tursunov, PhD, dots., Buxoro davlat universiteti, Buxoro

M.X.Cho'lliyeva, magistrant, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Ushbu maqola hozirgi globallashuv davrda mediaplatformalar mediadiskurslaridagi turli obrazlarning qanday ifodalanishi masalalari, milliylikni aks ettirishga xizmat qiluvchi xalq mifologiyasida mavjud bo'lgan hamda zamonaviy ingliz jamiyatida qahramonlar kabi kishilar ongida milliy g'ururni shakllantirishga ko'maklashadigan timsollarni yaratadigan vositalar tahliliga bag'ishlangan. Unda mediadiskursning tilshunoslikdagi o'rni, o'ziga xos xususiyatlari, turli ingliz xalqi va jamiyatiga aloqador obrazlarning milliy-madaniy sifatleri ham tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: media-kontekst, media-nutq, media-matn, milliy obrazlar, ta'sirchanlik, madaniy unsurlar, ta'sirchanlik.

Аннотация. Данная статья посвящена анализу вопросов того, как различные образы выражаются в медиадискурсах медиаплатформ в современную эпоху глобализации, существующих в народной мифологии инструментов, служащих для отражения национализма и создания символов, способствующих формированию национальной гордости в сознании людей, таких как герои в современном английском обществе. Также анализируется роль медиадискурса в лингвистике, его специфика, национально-культурные качества образов, связанных с различными английскими людьми и обществом.

Ключевые слова: медиа-контекст, медиа-речь, медиа-текст, национальные образы, влияние, культурные элементы, влияние.

Abstract. This article is devoted to the analysis of how different images are expressed in the media discourses of media platforms in the current era of globalization, the tools that exist in the folk mythology that serve to reflect nationalism and create symbols that help to form national pride in the minds of people such as heroes in modern English society. It also analyzes the role of media discourse in linguistics, its specific features, national-cultural qualities of images related to various English people and society.

Key words: media-context, media-speech, media-text, national images, influence, cultural elements, influence.

Media-diskurs - bu tilshunoslik bilan bog'liq ko'plab fanlarning qiziqishlari doirasiga kiradi, bu asosan ommaviy kommunikatsiya mohiyati bilan izohlanadi. Ommaviy axborot vositalarini intensiv o'rganish sotsiologiya, psixologiya va aloqa nazariyasida olib boriladi. Sotsiologiya doirasida tadqiqotlar g'oyaviy mohiyatini, ommaviy kommunikatsiyaning ijtimoiy funksiyasini, uning jamiyat uchun ahamiyatini aniqlashga qaratilgan. Ommaviy axborot vositalarini o'rganishning psixologik jihati vositachilik aloqalarini, ma'lumotlarni idrok etish xususiyatlarini, auditoriyaga ta'sir o'tkazish mexanizmlarini o'rganish, ularni manipulyatsiya qilish masalalarini o'rganish bilan bog'liq.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI**

**XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI
AXBOROTNOMASI**

**№5/5 (126)
2025 y., may**

O‘zbekcha matn muharriri:	Ro‘zmetov Dilshod
Ruscha matn muharriri:	Hasanov Shodlik
Inglizcha matn muharriri:	Xamrayev Nurbek, Lamers Jon
Musahhih:	O‘rozboyev Abdulla
Texnik muharrir:	Shomurodov Jur‘at

“Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi” O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi
Xorazm viloyat boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tgan. Guvoxnoma № 13-023

Terishga berildi: 07.05.2025
Bosishga ruxsat etildi: 14.05.2025.
Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8. Adadi 70.
Hajmi 18,9 b.t. Buyurtma: № 5-T

Xorazm Ma’mun akademiyasi noshirlik bo‘limi
220900, Xiva, Markaz-1
Tel/faks: (0 362) 226-20-28
E-mail: mamun-axborotnoma@academy.uz
xma_axborotnomasi@mail.ru



(+998) 97-458-28-18